



URF-ODATLARNING VILOYATLARDAGI TALQINI

Sevinch Rajabboyeva

Navoiy davlat pedagogika instituti 2- kurs talabasi

ARTICLE INFO

Received: 02nd November 2023

Accepted: 08th November 2023

Online: 09th November 2023

KEY WORDS

Marosim, urf-odat, to'y, millat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada o'zbek xalqining oilaviy-maishiy marosimlarda o'tkaziladigan urf-odatlarining o'tkazilishidan maqsadi va uning turli viloyatlarda turli xil o'tkazilishi to'g'risida fikr yuritilgan.

O'zbek xalqining urf-odatlarini asrlar davomida O'zbek millatining tashkil topishida katta ahamiyatga ega hisoblangan va O'zbek oilasi o'z urf-odati-yu, an' analari bilan tirikdir. O'zbek millatining ko'pchiligi oilaviy hayotga oid bo'lib, farzand dunyoga kelishi va tarbiyasi (beshik to'y, sunnat to'y), nikoh (fotiha to'y) dan iborat. O'zbek millatining urf - odatlari nafaqat oilada, balki har bir sohada o'z aksini topgan, misol uchun: masjid,choyxonalar, bozorda, nahorgi osh, milliy bayramlar, navro'z bayrami, kelin salom va boshqalar alohida o'ziga xos bo'lgan urf -odatlar mavjud. Biz mana shunday urf - odatlardan nikoh (fotiha to'y) ning turli viloyatlarda o'tkazilishi bo'yicha talqin qilamiz.

"To'y- xalqning ma'naviy va ijtimoiy hayotida muhim hodisa sanaladigan marosimlardan biri. Bu go'zal, qadimiy marosim xalq san'atining hamma turlari - badiiy, musiqiy, xoreagrafik hamda dramatik unsurlarni o'zida uyg'unlashtirgan."¹

Nikoh to'y - kelin va kuyovning nikohini jamoatchilikka ma'lum qilish tantanasi. Bu marosim davrlar o'tishi bilan qisman o'zgarib brogan va har bir etnik guruhda o'ziga xos xususiyatlari bilan o'zaro farq qilgan. O'zbek xalqining qadimgi Nikoh to'y tizimida bir qanchamarosimlar mavjud: sovcilik, unashtirish, uy ko'rar(qiz ko'rar), fotiha to'y, to'y yuborish, qiz oshi (qizlar majlisi), nikoh o'qitish, kelin tushdi, kelin salom,quda chaqiriq kabi marosimlar va ular bilan bog'liq urf-odatlar. Ularning aksariyati hozirgacha saqlanib, amal qilinib kelinadi. Nikoh to'y o'zbeklar uchun muhim marosim hisoblanib, to'y oldi va to'ydan keyin o'tkaziladigan tantanalarga alohida e'tibor bilan tayyorgarlik ko'riladi. O'zbek milliy urf-odatlariga ko'ra, unashtiruv marosimi har bir joyda shunga o'xshash tarzda o'tkaziladi. O'zbek milliy urf-odatlariga ko'ra, kuyov va kelinning ota-onasi to'yga rozilik bildirganidan so'ng, fotiha to'y o'tkaziladi.Kuyov kelin tomonga,kelin esa kuyov tomonga sovg'alar yuborib, ikki yosh unashtiriladi.

Lekin undan keyin bo'ladigan marosimlarda har viloyatda turlicha urf-odat asosida nikoh to'y bo'lib o'tadi. Biz ularning taqqoslanishi va talqinini Xorazm diyoring an'anasi bilan boshlaymiz,chunki Xorazm mana shunday qadriyatlar beshigidir.Xorazmda to'ydan bir kun

¹ Ohunjon Safarov.Folklor-bebaho xazina.Tosh. "Muharrir" nashriyoti , 2010.329-bet.



oldin qiz uyida “Qizlar bazmi” bo`lib o`tdi. Bu marosim oldindan rejalashtirilgan to`yxonada bo`lib o`tib, u yerga kelinning dugonalari, yaqinlari, qarindoshlari, qo`ni – qo`shnilari, kuyov tomonidan qudalardan yaqin kishilari tashrif buyurishadi. Kelin oq kelin ko`ylagi kiyadi va u yerda bazm bo`ladi. Qizning bu kunda ham oq libos kiyishi uning qurayotgan hayoti shunday oq bo`lsin, hayoti shirin, baxtga to`la bo`lsin degan maqsadda kiyiladi. Bazm tugagandan so`ng qiz va dugonalari qizning uyiga kelib, kechasi “Xina yoqar” marosimi bo`ladi. Unda kelinning dugonasi kelinning qo`liga xina yoqadi va uni bo`lajak kelin ertasiga kuyovga ko`rsatadi va kuyov xinani yoqqan odamga ko`rimlik puli beradi. Ertasi ya`ni to`y kuni tushda kelinning ham, kuyovning ham uyida “Nahor oshi” beriladi. Kuyov shunda kelinning uyiga kelib, kelinni olib ketadi, bunda kelin o`z yangasi bilan ko`shana tagida chiqib ketadi. Ular keyin aylanishga borishadi va bunda kuyov kelinning yuzini ko`rishi uchun mashinadan tushishi uchun do`stlari bilan birgalikda kelinning o`ng tarafidagi dugonasiga ma`lum miqdorda pul tashaydilar. Shundan so`ng kelin tushadi va aylanib, ulan nikohdan o`tishadi. So`ng kuyovning uyiga borganda “Kelin salom” kuyovning qarindoshlariga bo`ladi. Bu paytda kelin ko`shana tagida yangasining orqasida turib, bukilib-bukilib salom beradi. Shundan so`ng kelin va kuyovga mulla nikoh o`qiydi. Shundan so`ng, kuyovning uyiga kirgandan so`ng, kuyovning beliga do`stlari belbog` bog`laydi. Bu belbog`ni, kuyovning kiyimlariga berkitilgan pullarni kelinning yangasi topishi kerak bo`ladi. Har bir topa olmaganiga 1 juft bukilib-bukilib salom beradi. Undan keyin kelin o`ng tarafga qarab o`tiradi va kuyov kelinni atrofini uch bor aylanib, kelinni ko`tarib o`ng yelkasi bilan yotoqqa tashlaydi va o`ng yelkasi bilan kelinning ustidan o`tdi va ular o`rtasidan kichkina bolakay o`tkaziladi. Buning ramzi ularning ham shirindan shakar bolalari bo`lsin deb. Keyin ikki yoshga ko`z tegmasin deb isiriq tutatiladi. So`ng kelin kuyov ikkalasi ham kechki to`yga tayyorlanishadi. Hozirgi kunlarda, to`ydan keyin o`tkaziladigan “kelin salom” to`yxonada o`tkaziladigan bo`lgan. To`y bo`lib o`tgandan 1 kun o`tib, kelinni uyidan kelinga atab tuxum qovrilib keltiriladi, har ikkala tomon bir – birini yaxshi tanishib olishi uchun “Qudalar tanishuvi” marosimlari bo`ladi. Kelinning uyida kelinning erkak qarindoshlari uchun “Kuyov salom”i bo`lib o`tdi.

Buxoro viloyatida esa, umuman boshqacha tarzda o`tkaziladi. To`ydan oldin kelinning uyida “Lali keldi” marosimlari bo`lib, bunda kuyov tomon to`yning xarajatlarini olib keladi. Lekin bu viloyatda Xorazmdagidek “Qizlar bazmi” bo`lmaydi. Nahorga osh bo`ladi yoki to`y kuni to`ydan bir soat oldin birinchi ovqatga osh beriladi. Bu yerda to`ydan oldin kuyov kelinni olib ketishga kelganda chimildiqni tagida turib o`lan ostida chiqib ketishadi. To`y kuni kelin to`y tugagandan keyin o`z uyiga borib kiyimini almashtirib, mahsi kiyib, paranji yopib, ostonasidan chiqishda otasi oyog`ini bukib turib, kelin otasining tizzasiga boshini 3 marta qo`yib, roziligini oladi. Kelinning yonida to`y kechasi yonida 2 ta yanga ya`ni bitta yoshi katta odam va bitta yangasi boradi. Bu kunda ikkala yoshga hayoti shu shirguruchga o`xshasin deya shirguruch, asaldek shirin bo`lsin deya asal, hayotda baxtdan – baxtga, ulkan kelajakka ega bo`lsin deya shirchoy beriladi. To`ydan bir kun o`tib kelinning uyidan qovurilgan jigar beriladi. Uning belgisi qizning kuchli, bardoshli bo`lishidir. Lekin bu yerda “Kuyov salom” bo`lmaydi.

Samarqand viloyatida esa, to`ydan oldin qizning uyida “Qizlar davrasi” bo`lib o`tdi. Bu marosim qizning uyida bo`lib o`tdi. Kuyovning uyida esa, “Maslahat oshi” bo`lib, bunda kuyovning yaqinlari, qarindosh – urug`lari kelib, ertangi to`yning maslahatini qilishadi. Ertalab esa, kuyov uyida “Nahor oshi” bo`lib o`tdi. Kuyov kelinni uyiga borganda “Chimildiqqa kirdi”,



“To`qqiz tovoq” marosimlari bo`lib o`tadi. “To`qqiz tovoq” marosimida kelin taraf kuyovning do`stlariga ovqat, noz-u ne`matlar beradi va ular bular uchun to`yona puli beriladi. Ularda “Kelin salom” to`y kuni bo`lib o`tadi.

Qashqadaryo viloyatida ham Xorazmdagi kabi to`ydan oldin, “Qizlar bazmi”, “Yigitlar yig`ilishi” bo`lib o`tadi. To`y kuni kuyov kelinni olib ketishga borganda, ikkalasini oynaga qaratadilar. Bundan maqsad, hayotlari oynaday tiniq va ravshan bo`lsin deb o`tkaziladi. Bu paytda kelinning sochi o`rilgan bo`lib, “Soch siypatar” marosimi bo`lib o`tadi. Bu marosimda kuyov kelinning sochini silaydi va yangalar kelin bilan kuyovni o`ng yelkasiga igna bilan ipni o`tkazishadi, bu ularni hayotda bir –birini tushunish belgisi hisoblanadi. Eng asosiysi, kelinning yangasi onasi bo`ladi. Tushda kuyov kelinni uyidan olib ketganda to`g`ri aylanib, to`yxonaga borishadi. Bu urf-odatlarining hammasi oldingi hayotida baxtli, taxtli, hayoti ham o`zlari kabi zo`r bo`lsin degan maqsadda o`tkaziladi.

Navoiy viloyatida to`ydan oldin kuyovning ham kelinning ham uyida “Nahor oshi” o`tkaziladi. Bu yerda Samarqanddagi kabi kuyovjo`ralariga ovqat berilib, ular buni pulini beradilar. Xorazmdagi kabi “Taqa tashashma” marosimi bo`lib o`tadi. Navoiyning ba`zi tumanlarida Kuyov kelinning uyiga borganda do`sti bilan olov atrofida aylanadi, kelinni o`z uyiga olib ketganda ham o`z uyiga borib, kelinni o`ng yelkasida ko`tarib, olovda uch marotaba aylantiradi. Bundan maqsad ikkala yoshning kelajakdagi hayoti olovdek baxtga to`lsin. Kelin kuyov uyiga borganda, uyga kirmasdan oldin ostonasiga boshini qo`yadi va yuzidagi takanani boloachalarga beradilar va uni bolachalar tortishadi, bundan maqsad kelin va kuyovning bolalari ko`p bo`lsin deb qilinadi. Kelinni uyida chimildiq dasturxonida kelin kuyovga hayotlari shirin bo`lsin deya shirguruch, asal, bolalari ko`p bo`lsin deya qaynatilgan tuxum beradilar.

O`zbek xalqlarida nikoh to`yida bu marosimlarni qilishdan asosiy maqsad, kelajak hayoti ravon, suvday tiniq, tugalmas baxt kelsin deya o`tkaziladi. Har viloyatda bu marosimni o`tkazilishini solishtirar ekanmiz, bu bilan har joyning o`ziga xos ma`lum urf-odatlarini, an`analarini borligini ko`rib chiqdik.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash lozimki, har bir xalq hayotida har doim o`ziga xos marosim, an`ana, urf-odat bo`lishi lozim. Ana shunday qadriyatlar xalqning tarixi mukammal, uzoq tarixga, taassurotlarga ega ekanligini ko`rsatib turadi. Bu maqolamiz orqali O`zbek nikoh to`ylarining ajralmas, uzviy qismini ochib beroldik, degan umiddaman. Shunday ekan, o`zbek to`y marosimi va folklorini tadqiq va tahlil qilish ham folklorshunoslik, ham etnografik nuqtai nazardan ilmiy ahamiyatga ega.

References:

1. B.Sarimsoqov. O`zbek marosim folklori. Toshkent. Fan. 1986.
2. L. Xudayqulova, N. Tursunova, Oilaviy – maishiy marosim folklori. Navoiy 2022.
3. Oxunjon Safarov. Folklor- bebaho xazina. Toshkent. “Muharrir “ nashriyoti. 2010.
4. S Davlatov. An`ana va marosim. Toshkent. Fan. 2009.
5. M. Jo`rayev, J. Eshonqulov, SH. Turdimov, T. Mirzayev, A. Tilavov. Toshkent. O`zbek folklori. 2020.